

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NORPO'LATOVA X., BOZOROVA M.

**“UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI”
FANIDAN KURS ISHINI BAJARISH UCHUN**



USLUBIY QO'LLANMA

TERMIZ - 2013

Ushbu uslubiy qo'llanmama «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, «Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanidan Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan kurs ishini bajarish yuzasidan kerakli me'yoriy xujjatlardan namunalar, kurs ishini bajarish tartibi, shuningdek namuna uchun kurs ishidan variantlarini o'z ichiga olgan

Mualliflar:

**p.f.n. Bozorova Muslima Qodirovna
o'q. Norpo'latova Hurshida Abdullayevna**

Taqrizchi:

p.f.n.A.A.Rahmatullaev

Mazkur uslubiy qo'llanma Termiz davlat universiteti ilmiy metodik Kengashining 2013 yil 22 apreldagi 4-sonli yig'ilishi bayonnomasi asosida nashrga tavsiya qilingan.

**Термиз давлат университети “Умумий педагогика” кафедраси
ўқитувчилари О.Эргашева, С.Норбоеваларнинг “Педагогик маҳорат
фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” номли
услугий қўлланмасига ёзилган**

Такриз

Бугунги педагогика фанининг асосий муаммоларидан бири ўқитувчилик санъатини такомиллаштириш, таълим жараёни самарадорлигини ошириш, педагогик кадрларни тайёрлашни яхшилаш ва дунёдаги энг тараққий этган педагогик технологияни амалиётда жорий этиш долзарб масала ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан О.Эргашева, С.Норбоевалар томонидан ёзилган “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” номли услубий қўлланмаси “Бошланғич таълим ва спорт тарбиявий иш” таълим йўналиши талабаларига мўлжалланган бўлиб унда “Педагогик маҳорат асослари” курси доирасида ўтиладиган семинар машғулотларида талабаларни семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси билан таништиради. “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” услубий қўлланмасида кириш, педагогик маҳорат фанининг мақсад вазифалари, семинар машғулотларининг шакллари, семинар машғулотларининг мавзулари, топшириқлар, муҳокама қилинадиган масалалар, назорат саволлари, мустақил топшириқлар, фойдаланиш учун тавсия этилган адабиётлар ўз ифодасини топган.

Услубий қўлланмада талабалар билан олиб бориладиган семинар машғулотларни бажариш йўллари кўрсатилган. Шу боис “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” ўқув қўлланмаси аynи пайтда ёзилган, бўлажак ўқитувчилар учун зарурий манба деб ҳисоблайман ва уни чоп этишга тавсия этаман.

**Термиз давлат университети
“Умумий педагогика”**

**Термиз давлат университети “Умумий педагогика” кафедраси
ўқитувчилари О.Эргашева, С.Норбоеваларнинг “Педагогик маҳорат
фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” номли
услубий қўлланмасига ёзилган**

Такриз

Бугунги педагогика фанининг асосий муаммоларидан бири ўқитувчилик санъатини такомиллаштириш, таълим жараёни самарадорлигини ошириш, педагогик кадрларни тайёрлашни яхшилаш ва дунёдаги энг тараққий этган педагогик технологияни амалиётда жорий этиш долзарб масала ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан О.Эргашева, С.Норбоевалар томонидан ёзилган “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” номли услубий қўлланмаси “Бошланғич таълим ва спорт тарбиявий иш” таълим йўналиши талабаларига мўлжалланган бўлиб унда “Педагогик маҳорат асослари” курси доирасида ўтиладиган семинар машғулотларида талабаларни семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси билан таништиради. “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” услубий қўлланмасида кириш, педагогик маҳорат фанининг мақсад вазифалари, семинар машғулотларининг шакллари, семинар машғулотларининг мавзулари, топшириқлар, муҳокама қилинадиган масалалар, назорат саволлари, мустақил топшириқлар, фойдаланиш учун тавсия этилган адабиётлар ўз ифодасини топган.

Услубий қўлланмада талабалар билан олиб бориладиган семинар машғулотларни бажариш йўллари кўрсатилган. Шу боис “Педагогик маҳорат фанидан семинар машғулотларини ташкил этиш технологияси” ўқув қўлланмаси аynи пайтда ёзилган, бўлажак ўқитувчилар учун зарурий манба деб ҳисоблайман ва уни чоп этишга тавсия этаман.

S O' Z B O S H I .

«Jahon sivilizatsiyasiga dahldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash qiyin»

I.Karimov.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida, erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi – ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan amaldagi o'quv rejasiga ko'rsatilgan kurs ishlarini bajarish talablariga muvofiq ushbu uslubiy qo'llanma yaratildi. Qo'llanmaning maqsadi – “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, bo'lajak pedagoglar tomonidan ularning chuqur o'zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, talabalarda mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantirish, ilmiy izlanishlar olib borish malakasini tarkib toptirish kabi qator vazifalarni bajarishlaridan iborat.

Mazkur uslubiy qo'llanma ta'lim jarayonining modernizatsiyalash va texnologiyalashtirish sharoitida talabalarga amaliy metodik yordam berishga mo'ljallangan.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan kurs ishlarini bajarilishiga qo’yilgan ilmiy metodik talablar.

Ushbu “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan tuzilgan dastur pedagogika fanining tuzilishi, ilmiy tadqiqot metodlarini, didaktika-ta’lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, maktabshunoslik, pedagogika tarixi va pedagogik mahoratga doir masalalarni o’z ichiga qamrab olgan.

Fanni o’qitishdan maqsad – talabalarda xalq pedagogikasi va hozirgi zamon ilmiy pedagogikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, shuningdek o’quv tarbiya muassasalarida ta’limiy, ma’naviy - ma’rifiy ishlarni va pedagogik faoliyatni tashkil qilishda yosh avlodga ta’lim- tarbiya berish jarayonida o’qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik qobiliyati, o’qituvchining muloqot madaniyati va psixologiyasiga oid bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” o’quv kursi talabalarning psixologiya, yosh fiziologiyasi va maktab gigienasi bo’yicha oldingi tayyorgarlik darajasini hisobga oladi va pedagogik bilim hamda ko’nikmalarni puxta egallash uchun asos yaratadi.

Fanning vazifasi—talabalarga Pedagogika nazariyasi va amaliyoti, pedagogik mahorat fanini nazariy jihatdan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari jarayonida chuqur o’rgatish asosida olingan bilim, ko’nikma va malakalarni amaliyotda qo’llay olishga o’rgatishdan iborat.

Kasbga oid bilimlar, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiriladi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondoshish yo’llarini ko’rsatadi. Uni o’qitish bo’lajak bakalavrda pedagogik madaniyatni shakllantirish, ya’ni o’qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarishga umumiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan yangi pedagogik tafakkurni tarkib toptirishga yo’naltirishi lozim. Bunda u:

— pedagogik jarayondagi modernizatsiya, innovatsiya va integratsiyalar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini va yosh avlod ta'lim- tarbiyasidagi rolini bilishi kerak;

— ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning innovatsion texnologiyalarini qo'llash; o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish; ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash; o'quvchilar guruhlarini boshqarish, o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini o'rnatish, pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratni yuksak darajada egallash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

— ilmiy tadqiqot ob'ektlari va metodlari; pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi; pedagogika fanining metodologiyasi; pedagogikaning jamiyatdagi o'rni; ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi; pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari. o'tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari; ilg'or pedagogik qarashlar; jahon ta'lim tizimi; pedagogikaning maqsadiga ko'ra turlari; pedagogik jarayondagi integratsiyalar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli; ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differentsiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon; XXI asr pedagogi obrazi; pedagogik antropologiya; ta'lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: kontseptsiyalari, paradigmalari; ta'lim prinsiplari; ta'lim metodlari, texnologiyalari; ta'lim turlari va bosqichlari; ta'limni tashxis qilish; tarbiya nazariyasining mohiyati; tarbiyaning mazmuni, prinsiplari; tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat(psixologiya); tarbiya metodlari va texnologiyalari; maxsus pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari; tarbiya turlari; jamoada, oiladagi tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari; O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi; ta'limni boshqarish shakllari; shaxsga ta'lim va tarbiya berish g'oyasining paydo bo'lishi; ta'lim va tarbiya

to'g'risida Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari; tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi; jahon pedagogik jarayoni; O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini, pedagogik jarayonda o'quvchi va o'qituvchi muloqot madaniyati va psixologiyasi, o'qituvchi nutqi, pedagog shaxsi, uni jamiyatda tutgan rolini amalga tatbiq eta olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviy va ketma-ketligi:

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani ixtisoslik fani hisoblanib, 1-2 semestrlarda o'qitiladi. Pedagogika fanini o'rganish falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, gigiena, innovatsiya, integratsiya kabi insonshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Fanning ta'limdagi o'rni.

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik va psixologik jihatdan tayyorlash va xalq ta'limi tizimiga bilimli, etuk, yosh avlodga har tomonlama o'rnak bo'la oladigan, fandan egallangan bilimlarni maktab amaliyotiga to'liq tatbiq etib, fanning takomilashib, yuksalishiga hissa qo'sha oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Talabalarning fanni o'zlashtirishida kurs ishlarining roli va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining «Oliy ta'lim haqida»gi nizomida (1998 yil 305-sonli buyrug'iga asosan qabul qilingan) Oliy ta'limning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar ko'rsatilgan:

davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil etish va malakali kadrlar etishtirishni ta'minlash;

mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlar o'qitishni tashkil etish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish;

o'quv amaliyotiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish , o'qitishni masofaviy vositalar bilan ta'minlash;

talabalarning ilmiy tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fan va texnikani rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi.

Ta'limda yoshlarni shaxsiy o'quv qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash printsipli Oliy ta'lim tizimi, O'zbekiston maktablari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan eng muhim vazifa bo'lib qoladi. Hozirgi o'tish davrida kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish ta'limning asosiy vazifasidir.

Demak, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, bugungi kun har bir yoshdan, har bir talabadan yaxshi mutaxassis bo'lishni, o'zi egallagan sohaning mohir ustasi bo'lishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, turli fanlarni o'zlashtirishda talabalarning mustaqil tayyorgarliklariga alohida etibor beriladi. Mustaqil tayyorgarlikning eng maqbul yo'llaridan biri bu kurs ishlaridir.

Kurs ishlari ya'ni kurs loyihalari talabaning mustaqil ta'lim olishining eng mahsuldor davri bo'lib, mustaqil ta'limning ushbu shaklidan foydalanish yuqori malakali mutaxassis tayyorlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari.

Kurs ishlari barcha predmetlardan o'sha predmet o'tilayotganda mustaqil topshiriq sifatida beriladi. Talaba kurs ishini bajarish mobaynida ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim bosqichida olgan bilimlarini umumlashtirib, ularni amalda qo'llay olishi, qo'yilgan muayyan masalani ijodiy hal etishi lozim. Buning uchun talaba o'quv va ilmiy adabiyotlarni mustaqil

o'qiydi, tahlil qiladi va rahbaridan maslahatlar oladi, sxema va chizmalarni tayyorlaydi, mutaxassislar yordamida muhokama qiladi va ishni himoyaga tavsiya qiladi.

Demak, qisqa vaqt ichida talabaning eng ko'p bilim olishini ta'minlashi tegishli kafedra va rahbarning kurs ishlarini samarali tashkil qilishiga bog'liq.

O'quv yili boshlanishida fan bo'yicha mustaqil ta'lim uchun kurs ishi ajratilgan taqdirda o'qituvchilar unga tegishli mavzular bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar (nomi, muallifi, bobi, paragrafi, sahifalari) haqida talabalarga batafsil ma'lumot bermog'i, kurs ishi bo'yicha o'zining maslahat beradigan hafta kuni, soati va xonasini aytmog'i lozim. Kafedra o'qituvchilarining talabalarga maslahatlar berish jadvali kafedraning e'lonlar doskasiga osib qo'yiladi (mustaqil ta'lim soati dars jadvaliga kiritilmagan bo'lsa).

Kurs ishini bajarishda talabaga o'z ishini quyidagi tartibda tashkil qilishni tavsiya etish mumkin.

kurs ishi mavzulari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish;

mavzuga tegishli nazariy qismni adabiyotlardan foydalanib, sinchiklab o'rganib chiqish va konspekt qilish;

mavzu bo'yicha masalalarning echish algoritmlarini tuzish;

o'z varianti bo'yicha hisob grafik ishlarini bajarish, algoritmlarga mos dastur ta'minotlari yaratish, natijalarni tahlil qilish;

bajarilgan kurs ishini o'qituvchiga ko'rsatib, to'g'ri echilganligini tekshirish;

tegishli o'rinlarni slaydlar, chizmalar, grafiklar, bilsn to'ldirish;

himoya uchun taqdimot tayyorlash (elektron variantda);

kurs ishini rasmiylashtirish;

kurs ishini himoya qilish.

Odatda kurs ishlari yozishda o'qituvchi rahbarligida tanlab olingan mavzu uchun talaba mustaqil reja tuzadi. Kurs ishini bajarish jarayonida o'qituvchi rahbardan muntazam ravishda maslahatlar olib turadi. Kurs ishlarini nazorat ishlaridan farqi shuki, bunda talabalar aniq mavzu bo'yicha mustaqil ravishda tegishli adabiyotlarni o'qib chiqib, mustaqil fikr yuritadi va kichik muammolarni echib berishga o'zining hissasini qo'shadi. Nazorat ishlarida esa oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga javob qaytariladi. Ularning hajmi kurs ishlarining hajmiga nisbatan kichik bo'ladi.

Demak, kurs ishlari talabalarni ilmiy tadqiqot ishlari olib borish malakasini hosil qilishga, ma'lum ilmiy harakterga ega bo'lgan ma'ruzalar yozishga o'rganishga chorlaydi. Kurs ishlari talabalarni o'quv tadqiqot ishlarining asosiy shakllaridan birini tashkil etadi.

Kurs ishini bajarilish sifatini baholash.

Muayyan fan uchun talabalar bilimini baholash mezonini tuzayotganda mustaqil ta'limga ajratilgan qismlar bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan ballarni albatta ko'rsatish lozim. Ta'lim yo'nalishlari Davlat ta'lim standartlarida o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar mashg'uloti) uchun ajratilgan soatlarga nisbatan mustaqil ta'lim soatlari o'rtacha 20-25% ekanini hisobga olib, mustaqil ta'lim bo'yicha talaba bilimini baholashga joriy va oraliq baholashdan ballar ajratilishi mumkin. Masalan, joriy baholashdan bittasi va oraliq baholashdan bittasini (umumiy ballning 20-25% atrofida) ajratish mumkin.

Albatta, bunda mustaqil ta'limga ajratilgan fan bo'lagining hajmi, topshiriqlar mazmuni, ularni bajarish muddatlari va fanning o'ziga xos xususiyatlari kabilarni e'tiborga olish lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etishni bajarish, ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, yangi baholash mezonlarini joriy etish kabi masalalarni kafedra majlislarida, fakultet o'quv-uslubiy kengashlarida muhokama qilib boriladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o'quv rejasidan fanlar uchun ajratilgan soatlarni tahlil qilish natijasida, hamda reyting tizimi talablaridan kelib

chiqib, talaba bilimini tabaqalashtirib baholash maqsadida kurs ishlari uchun maksimal - 30 ball ajratiladi.

Mak ball	qoniqarsiz	qoniqarli	yaxshi	A'lo
100%	0-54 %	55-70%	71-85%	86-100%

Kurs ishlari Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan o'quv rejaga ko'ra ishlab chiqilgan ishchi dasturda ko'rsatilgan bo'ladi.

«Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanining xususiyatlaridan va fanni o'zlashtirishda qo'yilgan talablardan kelib chiqib, quyidagi na'munaviy kurs ishi topshiriq mavzulari talabalarga tavsiya etiladi.

Kurs ishi namunaviy mavzulari

№	Kurs ishi mavzulari
1.	O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.
2.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'ururni tarbiyalash.
3.	O'quvchilarni tabiatni e'zozlashga o'rgatish yo'llari.
4.	Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish.
5.	Sinf rahbarining ma'naviy-axloqiy sifatleri.
6.	Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning ilmiy asoslari.
7.	Tarbiyaviy tadbirlarda xalq an'analaridan foydalanish, usullari.
8.	Navoiy va Voiz Koshifiy ijodiyotida axloqiy tarbiyadagi uzviylik.
9.	Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda senariyni tuzish metodikasi.
10.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehr-shavqat hissini tarbiyalash.
11.	"Sog'lom avlod" dasturini amalga oshirishda sinf rahbarining o'rni.
12.	Boshlang'ich sinflarda sayohatlarni tashkil qilish metodikasi.
13.	Sinf majlislarini tashkil etish metodikasi. (Ilg'or maktablar misolida.)
14.	Davlat ramzlariga mehr uyg'otishga doir tadbirlarni tashkil qilish.

15.	Maktablarda ota-onalar majlislarini tashkil etishning milliy xarakteri.
16.	Tarbiyaviy tadbirlarda xalq rivoyatlaridan foydalanish.
17.	A.Avloniyning "Turkiy guluston yoxud axloq" asarida ma`naviy axloqiy tarbiya masalalari.
18.	Maktabdan tashqari ta`lim muassasalarini ish faoliyati va yoshlar tarbiyasidagi o`rni.
19.	Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
20.	Oilada bola tarbiyasining milliy asoslari.
21.	A.Navoiy asarlarida bolalar tarbiyasi.
22.	O`zbekona urf-odatlariga doir tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.
23.	Xadislarda ota-onaga munosabat muammolari.
24.	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik.
25.	"Non aziz" mavzusida tarbiyaviy tadbirni tashkil qilish metodikasi.
26.	Milliy harakatli o`yinlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati.
27.	"Vatan ostonadan boshlanadi" mavzusida tarbiyaviy tadbir o`tkazishning usul va shakllari.
28.	An`anaviy bayramlarni tashkil etish metodlari.
29.	Xalq rivoyatlarida tarbiyaning tarkibiy qismlariga xos g`oyalarning ifodalanishi.
30.	Kaykovusning "Qobusnoma" asarida tarbiyaviy g`oyalarning mazmuni
31.	Ta`limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
32.	Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi konsepsiyasining amaldagi holati.
33.	Sinf jamoasini shakllantirishning asosiy bosqichlari.
34.	Shaxsning har tomonlama kamol topishda maktabning vazifalari.
35.	O`quvchining ma`naviy-ahloq tarbiyasi mezonlari.
36.	Tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish.
37.	O`qituvchilar jamoasini tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari.

38.	Maktabning o'quv - tarbiyaviy ishlari jarayonida sinf rahbarining faoliyati.
39.	O'quvchilarni aqliy va axloqiy tarbiyalashda sinf rahbarining roli.
40.	Shaxsni jamoa orqali tarbiyalash.
41.	Yosh avlod tarbiyasining ahloq mezonlari.
42.	Tarbiyaviy soatlarni tashkil qilishda jonli muloqatning ahamiyati.
43.	Dars jarayonida ta'lim – tarbiya muvozanatining tengligi.
44.	Jamoani tashkil etish usullari.
45.	Komil insonni shakllantirishda mehnat tarbiyasining o'rni.
46.	Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
47.	Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli.
48.	Prezident asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.
49.	Prezident asarlarining ta'limiy ahamiyati.
50.	Prezident I.A.Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida ta'lim- tarbiya masalalari.
51.	Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida ma'naviy - ahloqiy tarbiya masalalari.
52.	Maktab o'quvchilarining har tomonlama kamol toptirishda ma'naviyatning roli.
53.	"Sog'lom avlod" yili davlat dasturida ta'lim-tarbiya masalalari.
54.	O'quvchi va o'qituvchi muloqotida muomila madaniyati.
55.	Sinf tarbiyaviy soatlarini rejalashtirish va o'tkazish tartibi.
56.	Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni demokratlashtirish.
57.	Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
58.	Boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan o'qituvchining muomilasi.
59.	Bolalarning qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda maktabning roli.
60.	Ta'lim – tarbiyada sinfdan tashqari ishlarning samarasi.
61.	O'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchining nazokati va odobi.

62.	Muloqat jarayonini boshqarish uslublari.
63.	“Mustahkam oila” yili davlat dasturi.
64.	Pedagogik tajribalarni o’rganish va qo’llashda axborot texnologiyalarining o’rni.
65.	O’qituvchining muloqotga kirishishida uchraydigan pedagogik nizolar, kamchiliklar, ularni oldini olish yo’llari.
66.	Muloqotda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.
67.	Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda oliy pedagogika o’quv yurtlarining ichki imkoniyatlaridan foydalanishning yo’llari va usullari.
68.	Ta’lim paradigmalariga tarixiy-ilmiy yondashuv.
69.	Pedagogik tadqiqot metodlarini tanlash va qo’llash usullari.
70.	Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlari
71.	Shaxsning ijtimoiylashuvida ta’limning o’rni.
72.	Ta’limning ko’rgazmalilik metodi: kecha va bugun.
73.	Ta’limda o’quvchining ongli va faol munosabatlarini shakllantirish.
74.	O’zlashtirishda amaliy mashqlar metodlarining o’rni.
75.	Tanqidiy fikrlashni o’stiruvchi faol metodlar.
76.	Zamonaviy dars turlari.
77.	Bo’lajak o’qituvchilarni iqtisodiy tarbiya ilmiga tayyorlash.
78.	O’zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish zarurati.
79.	G’arb mutafakkirlari ta’limotida didaktik g’oyalar.
80.	Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlari
81.	Hozirgi kun jamiyat rivojida pedagogikaning o’rni.
82.	Ta’limning an’anaviy va noan’anaviy shakllari.
83.	Oilada tarbiya asoslari.
84.	Tarbiyaning asosiy funksiyalari.
85.	Ta’lim jarayonining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari.

86.	Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi darsning noan'anaviy shakllari
87.	Yoshlarning ma'naviy-intellektual sifatlarini aniqlash va rag'batlantirish uslublari.
88.	O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.
89.	Kasb – ahloqi, pedagogik etika.
90.	Axborotli texnologiya – tizim sifatida.
91.	Muammoli ta'lim texnologiyasi.
92.	O'qituvchining kasbiy mahorati..
93.	Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy madaniyati.
94.	O'sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
95.	Sinf rahbarining jamoani jinslashtirishdagi roli.
96.	Sinf rahbarining maktab ma'muriyatidagi o'rni.
97.	Sinf rahbarligi ishining maqsadi va vazifalari.
98.	Sinf tarbiyaviy soatlarini rejalashtirish.
99.	O'qituvchining pedagogik mehnat madaniyatini tahlil qilash.
100.	Uzluksiz ta'lim jarayonida komil insonni tarbiyalash.
101.	Yagona o'quv – tarbiya jarayonida fuqarolik tarbiyasi.
102.	Yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.
103.	Pedagogik texnologiyalar - dars samaradorligining muhim omili sifatida.
104.	Sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullari.
105.	Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch – qudrat manbayidir.
106.	Sog'lom avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ahamiyati.
107.	O'zbekistonni dunyoga tanitishda sportning o'rni.
108.	Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standarti.
109.	Milliy mafkurani shakllantirishda qadriyatlarimizning amaliy tatbiqi.
110.	O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash turlari.
111.	Atrof – muhitni toza saqlashda ajdodlarimiz merosidan foydalanishning amaliy usullari.

Kurs ishini bajarilishiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi «Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fani 1-2-semesterlarda o'tiladi. Kurs ishini bajarish fandan o'tilgan mavzular asosidagi egallangan bilim va malakalarga tayanib bajariladi. Kurs ishi rahbari xar bir tayyorgarlik bosqichini nazorat qilib va baholab boradi. Tegishli maslahatlar beradi.

«Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanidan bajarilgan kurs ishi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

kurs ishiga reja tuzilgan bo'lishi va rejaga ko'ra barcha ma'lumotlar tartib bilan yoritilishi

Berilgan topshiriq bo'yicha muayyan masalaga doir nazariy ma'lumotlar etarli darajada berilishi;

qo'yilgan masalani chuqur taxlil etib, sahifani yaratishning texnologiyasi bo'lishi;

Sahifa yaratilib, kurs ishi bilan birga dastur alohida diskda bo'lishi;

Mavzuga mos bo'lgan sahifani yaratish va sahifada keltirilgan ma'lumotlar mavzuga mos kelishi;

Kurs ishini bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar, internet sahifalarining ruo'xati va nihoyat kurs ishini bajarishda talaba qanday muammolarni qay darajada xal qila olganligi xulosa qismida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Talaba kurs ishining kirish qismida mavzuning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rne, mohiyati, ushbu mavzuga nisbatan "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanida olib borilayotgan izlanishlar, mavzuni kurs ishi sifatida olib

chikishdan maqsad, kuzlangan maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar haqida ma'lumot berib, 2-3-bet hajmida bo'lishi lozim.

Agar kirish qismida birorta muallif so'zlaridan misol keltirilsa, sahifa so'ngida 1 (snoska) belgisi qo'yilib izoh beriladi.

Rejalar bo'yicha mavzu yoritalayotganda fikrlar, agar amaliyot bilan bog'liq bo'lsa, ishlanmalar, misollar kiritish, kurs ishining mukammalligini ta'minlaydi.

Xulosa qismida ushbu mavzuni o'rganish, kurs ishi sifatida yoritishda o'zining mustaqil ijodiy fikrlarini umumlashmasini bayon etadi. Agar kurs ishi mavzusi amaliy ishlar bilan bog'liq bo'lsa, amalga oshirgan, taklif etayotgan yangiliklarini amalda qo'llanilishining natijasi va xulosasini yozadi.

Kurs ishini yakunlagach kafedradan tayinlangan rahbarga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar ishning yakunlanganligiga ishonch hosil qilgach, kafedra mudiri bilan kelishgan holda taqrizchi belgilanadi.

Taqrizni ham ishga ilova qilingan holda dekanatning, kafedraning rejasiga muvofiq fandan yakuniy nazorat ishlarini topshirgunga qadar kurs ishini ochiq himoyaga olib chiqiladi.

Kurs ishlari himoyasi kafedradan tuzilgan komissiya va ilmiy rahbar ishtirokida o'tkaziladi, kafedrada ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Baholar dekanat tomonidan berilgan reyting ballarni qayd qilish varaqalarida va quyidagi topshiriq varaqasida qayd qilib boriladi. Bunday topshiriq varaqasi esa kurs ishi topshirig'i berilgan vaqtda to'ldiriladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Unda kurs ishi mavzusi, kurs ishini bajarish bosqichlari, asosiy tavsiya qilinadigan adabiyotlar va himoya vaqti ko'rsatilgan bo'ladi.

Tasdiqlayman
Kafedra mudiri _____
«___» _____ 20__ й.

K U R S (I Sh I) L O Y I H A S I

_____ fani bo'yicha

Guruh _____ **Talaba** _____ **Rahbar** _____

T O P S H I R I Q

1. Ishlanadigan loyiha
(mavzu) _____

2. Boshlang'ich ma'lumotlar _____

3. Qo'llanmalar _____

4. Chizma qismining tuzilishi _____

a). _____

b). _____

c). _____

d). _____

5. Yozma qismining
tuzilishi _____

6. Qo'shimcha vazifa va
ko'rsatmalar _____

7. Kurs (ishi) loyihasini bajarish rejasi

1	2	3	4		Himoya

Rahbar _____

(imzo)

Tasdiqlayman

Kafedra mudiri _____

«___»_____20__y.

Termiz Davlat Universiteti, Pedagogika fakulteti

**“Umumiy pedagogika” kafedrasida bajarilgan kurs ishlarini baholash
mezonlari.**

№	Mezonlar	Maksimal bal
1.	Mavzuning dolzarbligi	0-5 ball
2.	Ishning ilmiy –uslubiy yangiliklari va ijodiy yondoshish darajasi	0-10 балл
3.	Mavzu bo'yicha natijalarning ilmiy to'garaklarda, konferentsiyalarda ishtirok etishi	0-5 балл
4.	Tushuntirish qismining rasmiylashtirilishi (natijalarning ilmiy texnikaviy, ishlab chiqarish iqtisodiy, madaniy sohalar ga mosligi va ishning ilmiy, ijodiy tahlil etilishi.)	0-20 ball
5.	Ilmiy - amaliy xulosalar	0-10 ball
6.	Imlo xatolari (orfografik) Tinish belgilari (punktiatsion) xatolari	0-5 ball
7.	Uslubiy xatolari (stilistik)	0-5 ball
8.	Elektron taqdimot tayyorlash.	0-10 ball
9.	Ishdagi mavjud chizmalar, slaydlar, grafiklar.	0-5 ball
10.	Talabanning himoya qilish darajasi, pedagogik mahorati.	0-15 ball
11.	Savollarga aniq va to'liq javob berishi	0-10 ball
	Jami	100

***) Ushbu baholash mezonlari kafedra yig'ilishida muhokama qilinib ma'qullangan. Bayonnoma № ____
_____ 20__ yil.**

Kafedra mudiri: _____

NAMUNAVIY KURS ISHI
(muqova)

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON
РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА О'РТА
МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
1-kurs 102-guruh talabasi**

HOLTO'RAYEV ASQARNING

**«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI»
fanidan tayyorlagan**

KURS ISHI

Mavzu: Prezident I.A.Karimovning “Barkamol
avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”
asarida ta’lim-tarbiya masalalari.

Bajardi:

Holto’rayev A

Qabul qildi:

p.f.n.Bozorova M

TERMIZ – 2013

**Mavzu: Prezident I.A.Karimovning «Barkamol
avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”
asarida ta’lim-tarbiya masalalari.**

REJA

Kirish

1. Prezidentimiz nigohida kelajak avlod.
2. “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarining mazmuni
3. “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqu tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy etukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir¹.

¹Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – 20-bet.

Asosiy qism.

1. Prezidentimiz nigohida kelajak avlod.

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, talim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi².

I.A.Karimov

Orzu misoli purviqor tog'larning osmono'par cho'qqilaridagi oppoq qor qoplagan qoyalarda hosil bo'lgan zilol jilg'alarga o'xshaydi. Jilg'alarning soyga, soylarning azim daryoga aylanib oqishida borliqning, yashash va yasharishning hayotbaxsh sururi mujassam. Yaratishga, taraqqiyotga azmu qaror qilgan xalqlarning orzu-umidlarida ana shu daryo haybati, ulug'vorligi ayon ko'rinadi. Asrlar mobaynida

²I.A.Karimovning 1995 yil fevral oyidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasidan.

niyat-intilishlari armon bo'lib kelgan xalqimizning ezgu orzulariga Istiqlol qanot bag'ishladi.

Mustaqillik millatimizning millat, xalqimizning xalq bo'lib jahonda tanilishi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tan olinishiga yo'l ochdi. Shu ma'noda o'zbek xalqini orzulari ushalayotgan xalq, O'zbekistonni pok niyatlar ijobat bo'layotgan yurt, desak adashmaymiz. Buni, avvalo, yuz-ko'zidan shijoati, g'ayrati barq urib turgan barkamol avlod qiyofasida ko'rib turganimiz g'oyatda quvonarlidir. Bugun istiqlolimiz bilan tengdosh avlod voyaga etgan yigirma yil tom ma'noda barkamol avlod orzusi, bu ulug' orzuning oltin poydevorini qurish va uning ro'yobini ta'minlash davri bo'lib tariximiz zarvaraqalarida qayd etildi.

Zotan, Istiqlol yillarida barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi sohasida amalga oshirilgan beqiyos ishlarni, ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar va ularning ulkan samaralarini e'tirof etish eng aziz, eng ulug' bayramimiz – Vatanimiz mustaqilligining yigirma uch yilligi arafasida ham farz, ham qarzdir.



Barkamol avlod orzusi

Bugun Istiqlolimiz bilan birga tug'ilgan yigit, qizlar yigirma yoshni qarshilab turibdilar. Ular ozod yurtning farzandlari. Bu ulug' qadriyat va ularga yaratilgan shart-sharoitlar esa, yuzaki qaraganda, o'z-o'zidan muhayyo bo'lgandek. Aslida-chi?.. Aslida mislsiz kurashlar va matonatli harakatlar evaziga yaratilgan bugungi hayotimiz, turmushimiz ortida chekilgan behisob mashaqqatlar, Yurtboshimizning oqilona siyosati, ulkan jasorati turibdi. Buni yosh avlod nafaqat Mustaqillik tarixiga doir kitoblardan o'qib-o'rganib bilib olishi, balki yurakdan his etishi lozim.

Barkamol avlod orzusi – millatimiz fidoyilari, ma'rifatparvar bobolarimizdan meros tuyg'u. Chunonchi, Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan Turkiston jadidlarining etakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu da'vati shundan dalolatdir: «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bexabar millat boshqalarga poymol bo'lur».

Bir yuz o'ttiz yil davom etgan chor Rossiyasi va sho'ro tuzumi istibdodi davrida bu singari da'vatlar armonga aylandi. Munavvarqori, Fitrat, Abdulla Avloniy singari ko'plab ma'rifatparvar, millatparvar allomalar orzu-niyatlari amalga oshmadi, ularning o'zlari esa shafqatsiz qatag'onga duchor etildilar.

Biroq toshni yorib yorug'likka bo'y cho'zgan giyoh misol millatning ro'shnoqlikka intilishi, pok tuyg'u tilaklar yo'lidagi urinishlari biror-bir davrda to'xtab qolgani yo'q. Hali sobiq mustabid tuzum jon taslim etmagan bir paytda, O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilmay turib Yurtboshimiz millat yoshlarini fan va ilmga o'rgatish hayotiy zarurat ekanini alohida ta'kidlagandi: «Aytish kerakki, kadrlarni puxtaroq qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga etmasdan, ularga ishonmasdan va qo'l-lab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi (O'n birinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida so'zlangan nutq. «O'qituvchilar gazetasi», 1989 yil 28 oktyabr). Yana bir iqtibos: «Kadrlardan samara olish uchun ularni tayyorlashga mablag' sarflash lozim. Agar biz haqiqatan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo'lsak, yoshlarni tayyorlash bilan juda jiddiy ravishda shug'ullanishimiz, zamonaviy kasbni egallashda ularga yordam berishimiz kerak. Bu sohada xasislik yaramaydi.

Bizga milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturi kerak» (I.Karimov. «O'qituvchilar gazetasi», 1990 yil 4 avgust).

Ushbu iqtiboslarda ulug' salaflarning asriy orzusi – barkamol avlodni etuk insonlar qilib voyaga etkazishdek qutlug' niyatning millat fidoyisi ongu tafakkuridagi bardavomligi yaqqol aks etgan.

Davlatimiz rahbari yuqorida iqtibos keltirilgan ma'ruzalarida ilgari surilgan g'oyalarni dadil ko'tarib chiqqan paytda sobiq sho'ro saltanati o'z tanazzulini tan olgisi kelmay, jon-jahdi bilan mustabid tuzumni saqlab qolishga urinayotgan, bu yo'lda ming turli nizolarni qo'zg'ab, taloto'plarni avjiga chiqarayotgan edi. Ana shunday qaltis va og'ir bir sharoitda Vatan istiqbolini, millat ravnaqini o'ylab ulkan jasorat bilan ta'lim

islohotiga kirishishni rejalashtirish – barkamol avlod orzusi yo’lidagi ilk qadamlar bo’ldi.

Orzuning oltin poydevori

Prezidentimiz Islom Karimov O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasidagi «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli ma’ruzasida kelajak avlod haqida qayg’urish, sog’lom va barkamol naslni tarbiyalashda tub islohotlarni amalga oshirishni mamlakat rivojining birlamchi vazifalaridan ekanini har jihatdan asoslab berdi. Mustaqillikning dastlabki besh-olti yilida qo’lga kiritilgan yutuqlarni ta’kidlarkan, davlatimiz rahbari eski sho’rolar zamonidan qolgan ta’lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan batamom qutulishga da’vat qildi. Ta’lim-tarbiya islohotining mazmun-mohiyatini Yurtboshimiz quyidagi so’zlarida aniq va teran ifodaladi: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim va tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak».

Bunday ulug’ maqsadga erishish davlatimiz zimmasiga g’oyatda ulkan mas’uliyat va katta xarajatlarni yuklashi sir emas edi. Endi oyoqqa turib kelayotgan mamlakat uchun bu ishlar juda ko’p kuch talab qilardi. Zotan, zamon talabi, O’zbekistonning istiqboli ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etardi.

Davlatimiz rahbari ana shu ma’ruzasida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni hayotga tatbiq qilishda aniq printsip – islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taklif qildi va har bir bosqichda bajarilishi lozim bo’lgan vazifalarni konkret belgilab berdi. Umumta’lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang’ich, umumiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzish maqsadga muvofiq, deb topildi. Oliy mutaxassislik ta’limi bakalavrlilik va magistraturaga bo’lindi. Shu bilan birga, uzluksiz ta’limning rasmiy tizimida yakunlovchi bosqich joriy etish ko’zda tutildi va bu bosqich ikki darajaga – aspirantura va doktoranturadan iborat bo’ladi, deb belgilandi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tarixiy ma’ruzasida ta’lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirishning mazmunidan tortib, bu yo’ldagi murakkabliklar, har bir bosqichda

ko'zda tutilgan vazifalar aniq belgilab, ko'rsatib berildi. Prezidentimizning 1997 yil, 6 oktyabrdagi «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida»gi Farmonida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlari deb hisoblansin», deb belgilandi.

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bu qadar katta ahamiyat qaratilishining sabablarini Yurtboshimizning Oliy Majlis XII sessiyasidagi (1998 yil, 28 avgust) nutqida aytilgan quyidagi fikrlari ravshan ko'rsatib turibdi: «Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil etaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga besh barmoqday, eskicha aytganda, to'qqiz pulday ayon bo'lsinkim, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham tubdan o'zgartirish mumkin emas».

Prezidentimizning bevosita boshchiligida yaratilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» faqat ta'lim-tarbiya sohalarinigina emas, balki shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning uzviy birligini, hamkorligini ta'minladiki, mazkur dasturning yangiligi, unda yangi ta'lim tizimining aniq kontseptsiyasi har tomonlama ishlab chiqilgani bir qator xalqaro ekspertlar, xorijlik fan arboblari tomonidan yirik anjumanlarda alohida ta'kidlandi.

Ulug' orzular ro'yobi

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqdi. Vatanimiz kelajagi – istiqlol yillarida kamol topgan bilimli, g'ayratli, sog'lom, barkamol avlod jamiyat hayotining barcha jabhalarida javlon urib faoliyat ko'rsatmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining salohiyati va kuch-qudrati bilan ta'lim-tarbiya sohasida muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan islohotlarning samaralari yaqqol ko'rinib turibdi. Eng muhimi, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan o'zgartirish va yangilashga qaratilgan qonunlar va Prezident farmonlari asrlar mobaynida orzu qilingan va istiqlol sharofati bilan barpo etishga kirishilgan ma'rifatli jamiyat – fuqarolik

jamiyatini qurishni huquqiy jihatdan kafolatlabdi. Uzluksiz ta'limning tamomila yangi va yagona tizimi hayotga tatbiq etildi, sobiq sho'ro davridan «meros» qolgan eskirgan tafakkur, qoloq ish uslublari va odatlaridan butkul voz kechildi, minglab yangi tipdagi ta'lim muassasalari barpo qilindi. Natijada mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga ko'tarish imkoni yaratildi.

Yosh avlod ma'naviy etuk, zukko va bilimdon, sport maydonlarida chiniqqan, mard farzandlar bo'lib kamol topishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar maqtansa arzigulik. Keyingi yillarda viloyatlar va tumanlarimizda 1200 dan ziyod sport inshooti barpo etilib, zamonaviy jihozlar va malakali ustoz-murabbiylar bilan ta'minlandi. Uch bosqichli tizim – «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada sport o'yinlari istiqbolimiz egalari ongiga sog'lom turmush tarzini singdirishda, xalqaro maydonlarda Vatanimiz obro'-e'tiborini oshiradigan fidoyi insonlar etib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Vatanparvarlikda jismonan barkamollik va etuklikning ahamiyati “Bilinga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifamizdir”- deb ta'kidlagan muhtaram prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov. Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda jismoniy tarbiya va sportning o'рни beqiyosdir. Jahon miqyosidagi turli nufuzli musobaqalarda o'zbek yoshlari erishayotgan g'alabalar bu haqiqatni tasdiqlab turibdi. Chunki barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori va kelajak asosi hisoblanadi. Ona Vatan buyuk bo'lmog'i uchun shu zaminda yashovchilar aqlan va jismonan sog'lom bo'lishlari shart. Ma'naviy va jimoniy barkamol avlodni tarbiyalash-faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u-ko'pmillatli Vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir.

Prezidentimizning bevosita rahbarligida boshlangan va muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya sohasidagi tub islohotlar samarasi, birinchidan, mamlakatdagi ijtimoiy muhitni yangiladi, yaxshiladi, ikkinchidan, jamiyatga yangi

shaxs – mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashi va pozitsiyasiga ega, hayotda o'rnini topa oladigan, har qanday nopok kuchlar ta'siriga tushib qolmaydigan, aniq maqsadlarni ko'zlab ish yuritadigan barkamol avlodning maydonga kelganida ko'rinadi. Bu esa, birinchi galda, O'zbekiston xalqining o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi sa'y-harakatlarida hal qiluvchi ahamiyatga molik katta yutuqdir.

2.“Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarining mazmuni.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"³, - degan fikri ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirish uchun Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustidagi IX sessiyasida, qonuniy zamin bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo'ldi: birinchidan, biz yashayotgan muhitda ijtimoiy tuzum o'zgarishi bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka bo'lgan munosabat o'zgardi, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo'ydi, to'rtinchidan, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishi, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg'ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqazo etdi.

1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yurtboshimiz so'zlangan nutqlarida shu vaqtgacha amalga oshirilgan

³ I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin "Tafakkur" jurnali, 1998 y, 2-son

tadbirlar talabga javob bermayotganligi, eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlarga va sarqitlardan to'liq qutila olmaganligimiz, ikkinchidan, o'zgarishlar yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bermaganligi, uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi.... kabilar ham bu islohotni zarurligini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan yurtboshimiz "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida so'zlagan nutqidan ta'lim-tarbiya tizimida islohotlar o'tkazish zarurati va olimlarini asoslab berdilar.

Ta'lim to'g'risidagi qonun maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashda iboratdir.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun 5 ta bo'lim, 34 moddadan iborat.

Qonunning 1-bo'limi "Umumiy qoidalar" deb nomlanadi. Unda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqlari, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, DTS, ta'lim berish tili kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 2-bo'limida ta'lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan.

Respublikamizdagi ta'lim tizimi: Davlat ta'lim standartiga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini; ta'lim tizimini rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxona, muassasa va tashkilotlarni qamrab oladi.

Mazkur qonunning 10-moddasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko'rsatiladi.



TA'LIM TURLARI



Qonunning uchinchi bo'limi ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim oluvchilarni va ta'lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, etim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan.

To'rtinchi bo'limida ta'lim tizimini boshqarishdagi Vazirlar mahkamasining, Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat

hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatilgan bo'lsa, beshinchi bo'limda yakuniy qoidalarini ifodalab berilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir⁴.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagogkadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg'u beriladi.

⁴Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. 25-bet

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;


o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;

milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;

ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy echimi ta'minlanadi.

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – XAYOTIMIZ MEZONI

MILLIY DASTUR MAQSADI – TA'LIM SOHASINI TUBDAN ISLOH QILISH, UNI O'TMISHDAN QOLGAN MAFKURAVIY QARASHLAR VA SARQITLARDAN TO'LA XALOS ETISH, RIVOJLANGAN DEMOKRATIK DAVLATLAR DARAJASIUDA, YUKSAK MA'NAVIY VA AHLOQIY TALABLARGA JAVOB BERUVCHI YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY TIZIMINI YARATISHDIR.




KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – HAYOTIMIZ MEZONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TO'G'RIDAGI

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODEL



Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga etuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi»¹.

Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

¹O'sha manba, – 30-bet.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;

majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.

Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

ta'limning ustuvorligi;

ta'limning demokratlashuvi;

ta'limning insonparvarlashuvi;

ta'limning ijtimoiylashuvi;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'ratib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; majburiy o'rta umumiy ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar

va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub erli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Bblalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ot-onalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida

davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.


Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:



1. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

2. Har ikki (aspirantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

3. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

4. Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

5. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni,

yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqei va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»¹.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi»².

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisichisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi».

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarini va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi».

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda

¹ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999. – 172-bet.

² O'sha asar, 171-bet.

ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Milliy model Kontseptsiasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

3. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi.

“Eng avvalo, bizning ta’lim tizimiga bo‘lgan munosabatimizni ham tubdan o‘zgartirish kerak. Ta’lim islohoti bizni demokratik o‘zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil etaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo‘lmog‘i zarur. Har birimizga besh barmoqdek, eskicha aytganda, to‘qqiz puldek ayon bo‘lsinkim, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o‘zgartirish mumkin emas”⁵



⁵ I.A.Karimov. “Barkamol alod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” T., O‘zbekiston Resublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqi.

Er yuzida odam zoti paydo bo'libdi-ki, u ta'lim tarbiya bilan shug'ullanib keladi, komillikkka intiladi. Kattalar yosh avlodga o'zlarining tajribalarini, insoniy fazilatlarini, bilim ko'nikma va malakalarini singdirishga harakat qiladi.

Bu vazifalar turli usullarda turlicha hal etilgan bo'lib, ularning natijasi sifatida, dastlabki ta'limotlarda tarkib topib borgan. Inson tafakkuri, bilimi uning ijtimoiy tajribalarida aks etgan.

Qadimshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, minglab yillar oldin kishilar etuk onglilik asosida madaniy meros namunalarini yaratganlar.

Ammo ularga berilgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati, qanday amalga oshirilganligi mukammal tarzda bizgacha etib kelmagan. Ayniqsa, ko'hna sharq mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Eron, Turkiya va boshqa joylarda o'ta mukammal ta'lim-tarbiya tizimi mavjud bo'lganligi madaniy-me'moriy yodgorlikda turli sa'nat va muxandislik inshootlarida uchratish mumkin.

Pedagogika ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotlarni o'rganadigan soha sifatida falsafaning tarkibida shakllanib bordi.

Pedagogikaning predmeti sifatida ta'lim-tarbiya jarayoni va unda amalga oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik ko'rgan kishilarning faoliyati tushuniladi.

Turli manbalar va mualliflarning pedagogikaga bergan ta'riflaridan kelib chiqqan holda uni quyidagicha ifodalash mumkin: Pedagogika jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy ehtiyojga mos holda tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish, zamonaviy bilim ko'nikma va malakalar berishning yo'l-yo'riqlari qonuniyat hamda mazmun-mohiyatini o'rganuvchi fandir.

Bu ta'rif ma'lum darajada «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mazmuniga mos keladi. Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatli, iste'dodli, o'z-o'zini to'liq anglagan, vatanparvarlik, fidoyilik his-tuyg'ulari shakllangan yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoj xalq ta'limi tizimi oldida yangi vazifalarni hal qilish masalasini qo'ymoqda.

Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov aytganidek:, "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan etuk farzandlari bilan jahonni qoyil qilishi lozim. Bu borada Vatanga muhabbat, sadoqat alohida o'rinda turadi".

O'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi inson qilib tarbiyalash har qanday ijtimoiy tizimning asosiy vazifasidir. Kuchli fuqarolik jamiyati sari ildam qadam tashlayotgan jamiyatimiz insonni barkamol ma'naviy- axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ishga ijodkorona yondoshuvchan, jamoat ishlarida faol qatnashuvchi qilib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Shubxasiz, u ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mehirlilik, mehirlilik g'oyalariga tayanish barobarida yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ talablari asosida olib borilayotgan islohotlar yuksak darajada kadrlar tayyorlash, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda yirik ijtimoiy-pedagogik loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.

Bugungi kunda barkamol avlodni zamonaviy ruhda tarbiyalash texnologiyasi har tamonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi talablarga rioya qiladi:

1. Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi yoshlar barcha vosita tabdirlarning muvofiqlashtirilishiga erishadi.
2. Tarbiyalanuvchilarga o'z yo'nalishi bo'yicha ta'sir etiladi-tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga.
3. Milliy g'oya yoshlar ma'naviyatining yuksalib borishida muhim omil bo'ladi.
4. Tarbiya va uning uzviyligi tufayli ijobiy natijalarga erishiladi.
5. Yoshlar ma'naviyatining yuksalib borishini juda ko'p qirralari, jixatlari bo'lib, bular: g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va axloqiy kabilardir.
6. Yoshlar chet tillarini o'rganishi, bilim olishida zamonaviy texnologiyalarni egallashda va millat taraqqiyotida o'ta muhim ro'l o'ynaydi. Tarbiyaga har

tamonlama yaxlit yondashuvda yuqoridagi omillar va sharoitlar uzviylashgan holda inobatga olinishi zarur.

UMUMIY XULOSALAR.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning mazmun va mohiyati mamlakatda barqaror bozor munosabatlarini shakllantirish, buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama: jismonan baquvvat, ma'nan etuk, chuqur aql zakovat egasi, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan avlodni voyaga etkazish eng muhim vazifaga aylandi. Bu jarayonni tartibga solish, bajarilish va amalga oshirish dasturini ishlab chiqish. Prezidentimizning "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli risolasi 1997 yilda mukammal darajada asoslab berildi va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur qabul qilindi. Bu bilan biz 1997 yilgacha hech qanday ishlar amalga oshirilmagan demoqlikdan yiroqmiz. Chunki, hali sobiq sovet davlatchiligi davridanoq prezidentimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga e'tibor qaratilishi buning uchun davlatimizdagi ijtimoiy institutlar oldiga ulkan vazifalar qo'yilganligi barchamizga ma'lum edi.

Islom Abdug'anievich har bir nutqida, har bir risolalarida diqqat e'tiborining asosiy qismini yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim berish, ularni kerakli va o'zlari qiziqqan kasb-hunarga yo'naltirishga qaratib, dunyo miqyosida raqobatga bardosh bera oladigan farzandlarni tarbiyalash, voyaga etkazish jarayoniga oilalar, barcha ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlarni birdek safarbar qilganliklari va bugun ham bunday ulkan vazifani dunyo taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini inobatga olgan holda davom ettirish lozimligini muttasil uqtirib kelmoqdalar.

Prezidentimizning "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli ushbu risolasi ham ta'limiy, ham tarbiyaviy jihatdan ahamiyati beqiyos bo'lgan, O'zbekistonda ta'lim tizimi va Kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha, ta'bir joiz bo'lsa Qomusiy asar darajasida qimmatlidir.

Islom Abdug'anievich ushbu asarida qabul qilinishi lozim bo'lgan Qonun va Dasturning mazmun mohiyatini avval boshdan sessiya qatnashchilariga obdon tushuntirib bergan edilar.

Rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoda etakchilik qilayotgan birorta davlat o'zining vorislari uchun bunday uzok kelajakni ko'zlagan milliy dasturiga yoki ta'lim tizimida ko'p bosqichli yo'nalishga ega mukammal Qonuniga ega emasligi Prezidentimizning ko'zlagan maqsadlari va amalga oshirayotgan ishlarining nechog'lik buyukligidan dalolat beradi.

Biz yoshlar mana shunday farzandsevar, elsevar davlatning fuqarolari bo'lganligimizdan qanchalik fahrlansak, g'ururlansak kam.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. - T.: 1997.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
5. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: «O'zbekiston», 1997.
6. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Qurbonov Sh, Axlitdinov R, Saidov H. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1999.
7. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston», 1999.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston» 1998.
9. Abdullayeva SH. va boshqalar. Pydagogika. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan», 2004, 198-b.
10. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.A. Yo'ldoshev tahririda. - T.: «Fan», 1990.
11. Ahmedov B. Ajdodlar o'giti. Hikmatlar. Hikoyatlar. Tamoyillar. - T.: «Cho'lpon», 1991.
12. Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1999.
13. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. “Pedagogika” O'quv qo'llanma. - T.: «Fan», 2004.
14. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar -T.: «O'zbekiston», 2000.

Internet saytlar:

1. www.pedagog.uz
2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. www. tdpu.uz

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kurs ishlaridan asosiy maqsad: ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llashdan iborat.

Kurs ishlarining talaba uchun ahamiyatli tomoni shundaki: ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning qo'yilish jarayonidan boshlab uni to'la nihoyasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish, zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlashga imkon beradi.

Tadqiqot, yangilik, tajriba-sinov olib borishga mo'ljallangan mavzular keyinchalik bitiruv malakaviy ish sifatida davom ettirish uchun yo'nalishi vazifasini belgilovchi omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch”. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008 yil.
4. Barkamol avlod orzusi Tuzuvchilar: qurbonov Sh, Axlitdinov R, Saidov H. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1999.
5. Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami.- Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 18-52-betlar.
6. Ochilov M, Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent, O'qituvchi, 1998.
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
9. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. V 2 kn. Kn. 1. – Moskva, Vados, 1999.
10. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 86-102-b.
11. N.G'aybullaev, R.Yodgorov. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. T., 2000, 104-110-b.
12. I.Tursunov, U.Nishonaliev. Pedagogika kursi. T., «O'qituvchi», 1998.
13. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T., «Sharq», 1997, 312-313-b.
14. Djurinskiy A.N. Istoriya Pedagogiki. – M.: Vados, 1999.
15. Juraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menedjmenti..-T.: Voris nashriyot, 2006.–257 b.
16. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma -T.: Turon-Iqbol, 2006.-112 b.
17. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2000.

18. Zunnunov A., U.Mahkamov. Didaktika. T.: Sharq, 2006. – 125 b.
19. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy kadriyatlar. T.: Fan, 1995.
20. Lixachev B.T. Pedagogika - M.: Yurayt, 1999.
21. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
22. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.G` M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
23. Pedagogika A.Q.Munavvarovning tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1996.-200b.
24. Pedagogika. Pod red. P.I.Pidkasistogo – M.: 2003.
25. Tursunov I.Y., Nishonaliev O'.N. Pedagogika kursi.-T.: O'qituvchi, 1997.
26. Xarlamov I.F. Pedagogika – M.: Gardariki, 2003.
27. G'aybullaev N., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.-T.: 2005.-176 b.
28. O'zbek Pedagogikasi tarixi. Tuzuvchi muallif, prof. A. Zunnunov. - T.: O'qituvchi, 1997.- 512 b.
29. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II- qism. T.: Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.-304 b.
30. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi.-T.: O'qituvchi, 1996.- 488 b.
31. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1993.
32. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm ma'rifat haqida. -T.: O'qituvchi, 1981.
33. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy, Al-adab al-mufrat (Adab durdonalari)-T.: O'zbekiston, 1990.
34. Abu muhammad ibn Iso at-Termiziy. Ash-shamoilan-nabaviya. T.: Cho'l'on, 1993.
35. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

36. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar.
37. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. T.: O'qituvchi, 1992.
38. Alisher Navoiy. Mabub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. -T.: Adabiyot va san'at, 1996.
39. Ahmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. T.: Fan, 1991.
40. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. G'Odob durdonalariG`.-T.: O'zbekiston, 1990.
41. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-saxix. -T.: O'zbekiston, 1991.
42. Kaykovus. Qobusnoma. T.: Meros, 1992.
43. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar va masalalar. (bakalavrlarning barcha yo'nalishlari uchun uslubiy ko'llanma). O'.Askarova. T.: 2005.-112 b.
44. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. (OTM muassasalari uchun uslubiy o'quv qo'llanma). Z.K.Ismoilova, T.: Fan. 2001.- 159 b.
45. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: O.Hasanboeva, T.: O'qituvchi, 1990.
46. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'zboshi muallifi B.Tuhliev). — T.: Yulduzcha, 1990.

Internet saytlar:

- 1.www.Pedagog.uz
- 2.[www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
- 3.www. tdpu.uz
- 4.www. edu. uz
- 5.tdpu-INTERANET. ped

This image shows a full page of blank, lined paper. It features approximately 28 horizontal blue or grey lines spaced evenly apart, typical of notebook paper. The lines extend across the entire width of the page, leaving small margins at the top and bottom. There are no vertical lines, text, or other markings on the page.

This image shows a single page of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

